



OILADA TARBIYANING AKTUAL MUAMMOLARI - BOLA TALABLARINI
BAJARA OLMASLIK, ETIBOR YETISHMASLIGI

Niyazmetova Nargiza

Nizomiy Nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'limda matematika
va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Solijonova Niluzar

Nizomiy Nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim
va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Xudayberganova Bibinur

Nizomiy Nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim
va sport Tarbiyaviy ishi yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Tarbiyaning aktual muammolari, e'tibor yetishmasligi, ishonchsizlik, ota-ona va farzand orasidagi ishonch yetishmasligi, ruhlantira olmaslik, o'ziga ishonchsizlik, qo'rquv maqolada yoritilib tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ota-ona, muammo, e'tibor, ishonch, oila.

“Qush inida ko'rganini qiladi” – deb bejiz aytishmaydi dono xalqimiz. Bola tug'ilib toki aqlini taniguncha ota-ona tarbiyasini oladi. Oilasida qanday tarbiya, yaxshimi yoki u yomonmi barini ko'rib boradi. Shu tariqa bola agressiv yoki pazetiv bo'lishi ham, insonlarga qanday muomila qilish ham, oiladagi muhitga bog'liq. Har doim uyda janjal bo'luvchi bolalar doimo agressiv bo'lib yuradilar, sal narsaga qo'rqib, cho'chib yurishadi. Kelajakda esa ular mana shu vaziyatdan chiqa olishmas ekan ular o'z yo'llarini topib ketishlari qiyin bo'lib qoladi. Bola niholga o'xshaydi qayoqqa egsang shu tomonga qarab o'sishni boshlaydi.

Tarbiya - arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish singari ma'nolarni o'rgatadi.¹ Bundan kelib chiqib turibdiki birgina tarbiya so'zida tushunishimiz mumkin bo'lgan hislatlar juda ham ko'p. Oilada birinchi muammo ota-ona janjali, farzandga umuman e'tabor yo'qligi, bolaning qiziqishlari bilan ota-onaning umuman qiziqmasligi, uning fikri oilada o'ringa ega emasligi, bolaning o'ziga nisbatan ishonchi yo'qligi, jamoat joylarida yoki begona insonlar bilan suxbatda o'zlarini noqulay his qilishlari, uning iqtidori yuzaga chiqmasligi, maktabdagi baholari keskin tushib borish, o'qishga nisbatan qiziqish yo'qligiga olib keladi. Ota-onaning o'z xulq-atvori hal qiluvchi eng muhim narsadir. Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman deb o'ylash kerak emas. Siz bolani turmushingizning har bir daqiqasida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingiz boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, kulishingiz, gazeta o'qishingiz bular hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega. Gapingiz ohangi sal o'zgarsa ham, bola buni darrov payqab oladi yoki sezadi, bola fikringizdagi hamma o'zgarishlarni har xil yo'l



bilan bilib oladi, lekin o'zingiz bundan bexabar bo'lasiz. Agar siz uyda qo'pollik yoki maqtanchoqlik qilsangiz, bolalaringizga nihoyatda katta zarar yetkazgan bo'lasiz, ularga yomon tarbiya bergan bo'lasiz va sizning bu nojo'ya qiliqlaringizning oqibati juda yomon bo'ladi.ⁱⁱ Nima uchun bolani eshitilmaydi ayni tili chiqayotgan paytda ota-ona bola bilan gaplashish kerak lekin gaplashilmaydi. Bolaning juda ham ko'p savollari bo'ladi ayni shu paytda bo'ldi savol beraverma demasdan aniq va to'liq gaplashish lozim. Bola ana shunda o'ziga kerakli javobni oladi. Kattalar farzandini gapirmayabdi deyishadi ammo u bilan yetarli chagaplashilmaydi. Bu esa bolalarda kam gapirish kabi oqibatlarni keltirib chiqazadi.

Ota-ona oilaning boshi farzandning tirgagi, mehr va muhabbati, ishonchidir. Ota-ona so'zini ko'rib chiqsak ularga juda ham go'zal ta'riflar berilgan. Oilada otaning ta'sir kuchi katta ekanligini faqat yoshlik yillaridagina emas, balki ulg'aygandan keyin ham his qilasan kishi. O'z otasini mehribon, g'amxo'r, talabchan, odil inson deb atay oladigan odamgina baxtlidir. Ota-bola uchun mustahkam tayanch, or-nomus, kelajagi yo'lidagi orzu-umidi, haqiqat va adolat posboni. Ijtimoiy va mehnat faoliyati bilan, yaxshi axloqi va xulqi bilan o'rnak, har bir yaxshi ishda ustoz, murabbiy, saxovat va muruvvat maktabidir.

Ona so'zi uchta harfdan iborat bo'lib, u o'zida oriyat, nafosat, andisha so'zlarining ma'nolarini to'liq mujassamlashtirgandir. Bular pokizalik, ma'naviyat, go'zallik uyg'unlashib Ona so'zi bunyod bo'ladi. Ona u fozila, oqila, komila. U e'tiqod, mehr-muxabbat va nafosat gulshaning sohibasi. Bu so'z yashash umidi, hayotga tashnalik, dunyoni anglashning boshlanishi demakdir. Ota-onalar farzandlariga e'tibor berib uning kelajagi uchun qayg'ursalargina ularning farzandlari komil inson bo'lib yetishadilar. Maqolamiz boshidan tarbiya so'ziga juda ham ko'p urg'u berdik, shu onda Abdulla Avloniy bobomizning bir gaplari esimizga tushadi "Tarbiya - biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat maslasidir". Bobomiz oltinga teng hikmatli so'zlarini aytib ketganlar. Tarbiyani noto'g'ri olish ham falokatli bo'lishi mumkin, tarbiya o'ldirishi ham yoki hayot berishi ham mumkin. Bola gapiryabdimi tinglash zarur, u nimadir ishga qiziqyabdimi qo'llab quvvatlash lozim. Bu orqali bola o'ziga ishonchni his qiladi yanada oldinga harakat qiladi. Agarki unga yo'q baribir qo'lingdan kelmaydi, biror ishni do'ndirib berarmiding deb aytsangiz u o'ziga nisbatan ishonchsizlikni his qila boshlaydi. Bola biror ishni boshlaganda ham qila olmayman, chunki ota-onam aytgan kabi hayol bilan ish qiladi va ana o'sha ish o'xshamaydi. Bu hayollar kelajakda ham o'ziga nisbatan ishonchsizlikni oshiradi. Natijada jamiyatda keraksiz insonlar o'zni yana bittaga ortadi.

Oila - axloq tamoyillari yotadigan, xarakterning shakllanishi va odamlarga munosabat shakllanadigan joy. Ota-onalar namunasi yaxshi va yomon xulq-atvorning muhim ko'rsatkichidir. Bu bolaning hayotga bo'lgan munosabatining asosidir. Bolalarni kattalarga hurmat ko'rsatishga va kichiklarga g'amxo'rlik qilishga o'rgatish kerak. Agar bola tashabbus ko'rsatib, uy ishlarida yordam berishga harakat qilsa, uni bunga undashingiz kerak. Albatta, ba'zi majburiyatlarni olib tashlagan holda. Ota-onalar farzandlaringiz bilan har kuni dars qiling, kuningizning 1-2 soatini yoki undan ko'proq vaqtni bolangiz bilan shugullanishga sarflang. Qachonki farzand o'zi mustaqil fikrlab



,mustaqil kitob mutolaa qilishga qiziqishi ortib bormagunigacha ota-ona farzandi bilan shug'ullanishi lozim.

Xulosa qilib aytish joizki bola bilan qancha ko'p suhbat uyushtirilsa bola o'zini erkin his qila boshlaydi va muommolarini, maqsadlarini aytishni boshlaydi. Ota-ona u uchun haqiqiy do'st ekanini his qiladi. Bolani tinglash uning fikrlarini hurmat qilayotganingizni anglatadi ,uning fikri ham oilada o'z o'ringa ega ekanligini bildiradi. Uning savollarini javobsiz qoldirmaslik uning dunyo qarashi va nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Bola bu orqali o'z menini shakllantiradi. O'z vaqtida berilgan e'tibor keyin ota-onalarimizning o'zlariga qaytadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.“TARBIYAVIYISHLAR METODIKASI” R. Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulova «Tib-kitob» nashriyoti Toshkent – 2010 201-bet.
- 2.fayllar.org, uchildiz.uz, musearoma